

ko'rsatilganidek, ketma-ket moviy qog'ozga yopishtirish va hosil bo'lgan kamalakni bulut shakllari bilan bezatish kerak.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lgan hollarda o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

### 5. Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa).

- Bugun nimani o'rgandik?
- Qanday yasama buyum tayyorladik?
- Kamalak qachon paydo bo'lishini eslaysizmi?

#### Kutilayotgan natijalar:

- qog'ozdan shakllarni qirqish, kesish, bukish va yelimlash texnikasi haqida tasavvurga ega bo'lish;
- qog'ozdan shakllarni qirqish, kesish, bukish va yopishtirish texnikasini qo'llagan holda rangli qog'ozdan "Kamalak" yasama buyumini yarata olish;
- bezak elementlarini yaratish uchun tasavvurni qo'llay olish;
- xavfsizlik qoidalariga riosa qilish va qog'ozdan tejamkorlik bilan foydalanish muhimligini tushunish.

## 5-DARS. OLMA

#### Dars maqsadlari:

- o'quvchilarda bezak texnikasi - mozaika haqida tasavvur shakllantirish;
- olma tasvirini yaratishda mozaika texnikasidan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli materiallar:** rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

### 1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

### 2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi mozaika texnikasi haqida umumiyl tushuncha beradi. Mozaika - bu turli materiallar bo'laklaridan tasvir yaratish usulidir.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Ish daftaringizning 22-betidagi rasmlarga qarang.

*Ushbu naqshlarning qaysi biri mozaika texnikasida yaratilgan?*

*2. Mozaikani qanday materiallardan yasash mumkin? (Plitkalar, rangli qog'ozlar).*

*3. Siz mozaikani qayerlarda ko'rgansiz? (Binolarda, metroda, "Mozaika" o'yinida)*

### **3. Namuna tahlili (5 daqiqa).**

Darsning bu qismi tuzilishga ko'ra odatdagidek o'tkaziladi.

Darslikda o'quvchilarga yordam sifatida video ko'rsatma berilgan bo'lib, ular shu asosida ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin.

### **4. Amaliy qism (25 daqiqa).**

Birinchi navbatda o'quvchilar qizil, sariq, yashil, havo rang va qora rangli qog'ozdan yo'l-yo'l qirqib olishlari kerak. So'ngra bu tasmalar ixtiyoriy ravishda kvadrat shakliga yaqin bo'laklarga bo'linadi. So'ngra oq qog'ozga olma shaklining konturini chizib, unga darslikda ko'rsatilgandek rangli qog'oz parchalarini yopishtirish kerak.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lgan hollarda o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

### **5. Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa).**

- Darsda nimani o'rgandingiz?
- Nima yangilik bildingiz?
- Yangi bilimlarni hayotda qanday qo'llay olamiz?

#### **Kutilayotgan natijalar:**

- mozaika texnikasi haqida tushunchaga ega;
- mozaika texnikasidan foydalanib rangli qog'ozdan "Olma" applikatsiyasini yarata oladi;
- dekorativ elementlarni yaratish uchun tasavvurni qo'llay oladi;
- xavfsizlik texnikasiga rioya qilish va qog'ozdan tejamkorlik bilan foydalanish muhimligini tushunadi.